MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT AXBOROTLASHTIRISH

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

ГИБРИДНЫЙ МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ПРОГРАММНО-АППАРАТНОЙ АРХИТЕКТУРЫ ИММЕРСИВНОЙ ОБУЧАЮЩЕЙ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ БАЗЫ ЗНАНИЙ И МНОГОКРИТЕРИАЛЬНОЙ ОПТИМИЗАЦИИ 9
Хасанмансур Тимурович Ядгаров, Ботир Болтаевич Элов
AGRAR SOHANI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT QO‘LLAB-QUVVATLASHI VA BANKDAN TASHQARI VOSITALARNING O‘RNI 16
Nasriddin Fattiyevich Buronov
SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI 22
Akhmadaliyeva Nikhola
A HYBRID ADAPTIVE LARGE NEIGHBOURHOOD SEARCH ALGORITHM FOR ROUTING LESS-THAN-TRUCKLOAD PICKUPS WITH TIME WINDOWS AND TWO-DIMENSIONAL CAPACITY 27
Hamzayev Ulug‘bek Habibulla o‘g‘li
DIGITAL ECONOMY AND ECONOMIC GROWTH: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES IN THE MODERN ERA 36
Shoymardonov Axrorjon Azamat ugli
SIRDARYO VILOYATIDA OILAVIY MAKTABGACHA TA’LIM XIZMATLARIGA TALAB VA MARKETING SAMARADORLIGINI KO‘P MEZONLI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 42
Mamanazarova Sohiba Abdug‘aniyevna
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO‘LOVGA QOBILLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI 47
Askarov Ziyodulla Usmanaliyevich
RESURSLARI CHEKLANGAN VIDEOKUZATUV TIZIMLARIDA ANOMAL XATTI-HARAKATLARNI ANIQLASHNING NEYRO-MODEL ALGORITMLARI 53
Xolmatov Azizbek Tolibjonovich
ПОЭТАПНАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ФОРМАЛИЗАЦИЯ САМОЗАНЯТОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ РЕГИСТРАЦИИ ДО СОЗДАНИЯ ОФИЦИАЛЬНЫХ НАЁМНЫХ РАБОЧИХ МЕСТ 57
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович
TIJORAT BANKLARINING YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDAGI ROLI 68
Butanova Dilnoza Rustamovna
ORQA TOMONI SUV BILAN SOVITILADIGAN QUYOSH PANELINING ISSIQLIK HOLATINI ANALITIK VA SONLI USULLARDA BAHOLASH 76
Sadullayev Nasillo, Nematov Shuxrat, Soliyeva Z.N.
ANOR YETISHTIRISH VA SOTISHNI IQTISODIY BAHOLASH 83
Irgashev Abbos Jumanazarovich
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH VA UNING NATIJADORLIGINI KO‘P MEZONLI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 89
Hamroyev Halim, Toyirova Hamida
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINI REJALASHTIRISHDA SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI 97
Mamadaliyev Akmaljon G‘ayrataliyevich
TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARIDAGI RISKLARNI BAHOLASH VA RISKKA ASOSLANGAN NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH 102
Muxsinov Nabijon Toxirovich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING DOLZARB MASALALARI 107
Ergashev Iskandar Urunovich

HYBRID CLUSTERING AND GENERALIZED ASSESSMENT FOR INTELLIGENT ANALYSIS OF MAHALLA ACTIVITY INDICATORS 112
Allamurodov Norbobo Tursun o‘g‘li, Hamzayev Ulug‘bek Habibulla o‘g‘li
DAVLAT ISHTIROKIDAGI TRANSPORT KORXONALARIDA KORPORATIV MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING INVESTITSION QARORLARGA TA’SIRI 121
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
HUDUDLARNING ELEKTRON TIJORAT SALOHIYATINI BAHOLASHNING INNOVATSION METODOLOGIYASI 128
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH 133
Po‘latov Sardor Akmal o‘g‘li
TUPROQQA ISHLOV BERADIGAN MASHINALAR ISH ORGANLARI ISH RESURSINI OSHIRISHDA MAHALLIY XOMASHYOLARDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI VA MATERIAL TARKIBINI ISHLAB CHIQISH 142
Qosimov Karimjon, Qosimova Malohatxon
TERMIZ SHAROITIDA FOTOELEKTRIK TIZIMLARNING FIZIK PARAMETRLARINI TAQQOSLASH 150
Boysori Yuldoshov, Jahongir Eshonqulov
RAQAMLI PLATFORMALARNING O‘ZBEKISTON KICHIK BIZNESINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISHDAGI ROLI 157
Paraxatova Gulzira Amanbay qizi
YASHIL TRANSFORMATSIYADA INSON KAPITALI VA YASHIL KO‘NIKMALAR: ENERGIYA VA RESURSLAR SAMARADORLIGIGA TA’SIR MEXANIZMI 164
Aripov Oybek Abdullaevich
O‘ZBEKISTONDA NAQD PULSIZ TO‘LOVLAR TIZIMINING RIVOJLANISHI: HOLATI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI 171
Ziyodullayev Dilshod, Sharapova Mashxura
AHOLI DAROMADLARI VA XARAJATLARI DINAMIKASINING STATISTIK BAHOLANISHI VA TARKIBIY SILJISHLAR TAHLILI 177
So‘fiyeva Xusniya Soxibjonovna
ИЗМЕНЕНИЕ СТРУКТУРЫ МЕТАЛЛОВ ПРИ ИХ МАГНИТНОЙ ОБРАБОТКЕ 181
С.М. Хасанов
ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ТРАНСФОРМАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ ЭФФЕКТИВНОСТИ 188
Сафаров Жавохир Исмоилович
O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: OCHIQ STATISTIK MA’LUMOTLAR ASOSIDAGI TAHLIL 195
Berdimbetova Amina

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: OCHIQ STATISTIK MA’LUMOTLAR ASOSIDAGI TAHLIL

Berdimbetova Amina
Nukus davlat texnika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: aminaberdimbetova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistondagi demografik o‘zgarishlarning mehnat bozorining shakllanishi, mehnat resurslari hajmi, bandlik, ishsizlik, yoshlar va xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi hamda uzoq muddatli qarish jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning empirik asosini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ochiq ma’lumotlari, BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA), BMTning World Population Prospects materiallari, Jahon banki va ILOSTAT ma’lumotlari tashkil etadi. 2025-yil bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, iqtisodiy faol aholi 15,68 mln, band aholi 14,93 mln, ishsizlar esa 744,9 ming kishini tashkil etgan; bandlik darajasi 70,5 foizga yetgan. 2026-yil boshida doimiy aholi 38,2 mln, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi 21,3 mln kishini tashkil qilgan. Uzoq muddatda 65 yosh va undan katta aholi ulushining tez o‘sishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: demografik o‘zgarishlar, mehnat bozori, mehnat resurslari, bandlik, ishsizlik, demografik dividend, migratsiya.

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь демографических изменений в Узбекистане с формированием рынка труда, численностью трудовых ресурсов, занятостью, безработицей, экономической активностью молодежи и женщин, а также долгосрочными процессами старения населения. Эмпирическую основу исследования составляют открытые данные SIAT Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, материалы Фонда ООН в области народонаселения (UNFPA), доклады ООН World Population Prospects, а также данные Всемирного банка и ILOSTAT. Согласно предварительным данным за 2025 год, численность экономически активного населения составила 15,68 млн человек, занятого населения — 14,93 млн человек, а безработных — 744,9 тыс. человек. Уровень занятости достиг 70,5 %. В начале 2026 года постоянное население страны составляло 38,2 млн человек, а численность населения трудоспособного возраста — 21,3 млн человек. В долгосрочной перспективе ожидается ускоренный рост доли населения в возрасте 65 лет и старше.

Ключевые слова: демографические изменения, рынок труда, трудовые ресурсы, занятость, безработица, демографический дивиденд, миграция.

Abstract: The article analyzes the relationship between demographic changes in Uzbekistan and labor market formation, the size of the labor force, employment, unemployment, the economic activity of young people and women, and long-term population aging processes. The empirical basis of the study consists of open data from the SIAT database of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, materials from the United Nations Population Fund (UNFPA), the United Nations World Population Prospects reports, and data from the World Bank and ILOSTAT. According to preliminary data for 2025, the economically active population amounted to 15.68 million people, the employed population reached 14.93 million, and the number of unemployed people stood at 744,900. The employment rate reached 70.5%. At the beginning of 2026, Uzbekistan’s resident population totaled 38.2 million, while the population of working age amounted to 21.3 million. In the long term, the share of the population aged 65 and over is expected to increase rapidly.

Keywords: demographic changes, labor market, labor force, employment, unemployment, demographic dividend, migration.

KIRISH

XXI asrda demografik jarayonlar mehnat bozori rivojlanishini belgilovchi asosiy uzoq muddatli omillardan biridir. Aholi sonining o‘sishi yoki kamayishi, yosh tarkibining o‘zgarishi, tug‘ilish va umr ko‘rish davomiyligi, ichki va tashqi migratsiya hamda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushi ishchi kuchi taklifi va iqtisodiy faollikning tarkibiy parametrlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Lisenkova, McQuaid va Wright demografik o‘zgarishlarning mehnat bozoriga ta’sirini, xususan, aholining qarishi va potensial ishchi kuchining qisqarishi orqali izohlaydi.

Qarish natijasida ishchi kuchida yoshi katta xodimlar ulushi ortishi, yoshlar ulushi esa kamayishi mumkin [1]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholi bir muddat o‘sishda davom etishi mumkin, biroq ishchi kuchining o‘rtacha yoshi ham ko‘tariladi. Bu yondashuv O‘zbekiston uchun muhim: mamlakat hozircha yosh va tez o‘sayotgan aholi tarkibiga ega bo‘lsa-da, qarish jarayonining dastlabki bosqichiga kirib bormoqda.

UNFPAning Markaziy Osiyo bo‘yicha 2025-yilgi demografik sharhida O‘zbekiston aholisi 2024-yilda 37,4 mln kishiga yetgani va aholining 55 foizi 30 yoshdan kichik ekani qayd etilgan. Ushbu manbaga ko‘ra, aholi soni 2030-yilga kelib 40 mln kishidan oshishi, 2050-yilda esa taxminan 52 mln kishiga yetishi mumkin. 15–64 yoshdagi aholi soni 2024-yildagi 23,9 mln kishidan 2050-yilda 33 mln kishidan yuqori darajaga ko‘tarilishi prognoz qilingan [2]. Demak, yaqin o‘n yilliklarda O‘zbekistonning asosiy vazifasi ishchi kuchining mutlaq qisqarishidan ko‘ra, tez ko‘payayotgan mehnat taklifini samarali va barqaror bandlik bilan ta’minlashdan iborat.

Maqolaning maqsadi — xalqaro ilmiy adabiyotlarda shakllangan demografiya va mehnat bozori o‘zaro bog‘liqligi konsepsiyalarini O‘zbekistonning ochiq statistik ma’lumotlari bilan uyg‘unlashtirish, mavjud tendensiyalarni baholash va milliy sharoit uchun asosiy siyosiy yo‘nalishlarni aniqlash. Tadqiqot savoli: O‘zbekistonda demografik o‘sish va yosh tarkibidagi o‘zgarishlar mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik dinamikasiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda hamda demografik dividendni iqtisodiy natijaga aylantirish uchun qaysi omillar muhim?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Demografik o‘zgarishlar va mehnat bozori munosabatlari bo‘yicha tadqiqotlarda aholining qarishi, ishchi kuchi taklifi, iqtisodiy qaramlik koeffitsiyenti, mehnat unumdorligi, xotin-qizlar va katta yoshdagilarning iqtisodiy faolligi hamda migratsiya asosiy moslashuv mexanizmlari sifatida ko‘riladi. Lisenkova va hammualliflar ishchi kuchi sonining o‘zgarishi bilan bir qatorda, turli yosh guruhlari o‘rtasidagi to‘ldiruvchanlik, inson kapitali, texnologiyalar va ko‘nikmalardan samarali foydalanish muhimligini ta’kidlaydi [1]. UNFPA demografik dividenddan foydalanishni sog‘liqni saqlash, ta’lim, kasbiy ko‘nikmalar va, ayniqsa, yoshlar hamda xotin-qizlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish bilan bog‘laydi [2]. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha gender baholashi ham ayollarning mehnat kuchida ishtirokini oshirish uchun institutsional to‘siqlarni kamaytirish zarurligini ko‘rsatadi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot umumiy sharh va ikkilamchi statistik tahlil usullarini birlashtiradi. Nazariy asos sifatida demografik o‘zgarishlar va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimli yoritgan Lisenkova va hammualliflarning ishi foydalanildi [1]. Empirik tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ochiq ma’lumotlar bazasidan 2010–2025-yillardagi mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, band aholi, ishsizlar soni, iqtisodiy faollik va bandlik darajalari olindi [3–7]. Demografik tarkib bo‘yicha 2026-yil boshidagi doimiy aholi va mehnatga layoqatli yosh guruhlari, shuningdek, 2011–2026-yillardagi mehnatga layoqatli aholi qatori ishlatildi [8, 9]. Uzoq muddatli prognozlar UNFPA va BMT demografik baholariga, ayollar bandligi bo‘yicha tahlil Jahon bankining gender ma’lumotlariga, migratsiya bo‘yicha esa Jahon banki materiallariga tayandi [2, 10–13].

Tahlilda mutlaq miqdorlar (ming va million kishi), ulushlar va dinamik taqqoslashlardan foydalanildi. 2025-yilda 744,9 ming ishsizning 15 678,8 ming iqtisodiy faol aholiga nisbati qayta hisoblanib, taxminan 4,75 foizni tashkil etishi aniqlandi. Turli metodologiyalarga asoslangan milliy va xalqaro ko‘rsatkichlar bevosita birlashtirilmadi; ular parallel dalillar sifatida talqin qilindi. SIATdagi 2025-yilga oid ayrim ko‘rsatkichlar dastlabki ma’lumotlar sifatida belgilangan. Tadqiqot tavsifiy xususiyatga ega bo‘lib, sabab-oqibat munosabatlarini ajratish uchun ekonometrik model qo‘llanilmadi.


TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning demografik modeli hozirgi bosqichda aholi sonining tez o‘sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi va mehnat yoshidagi aholi sonining mutlaq ko‘payishi bilan tavsiflanadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi 38,2 mln kishini tashkil qilgan. Shundan mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar 12,3 mln (32,1 foiz), mehnatga layoqatli yoshdagilar 21,3 mln (55,8 foiz), mehnatga layoqatli yoshdan kattalar esa 4,6 mln (12,1 foiz) kishidan iborat bo‘lgan [8]. 2011–2026-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi 17,8 mln kishidan 21,3 mln kishiga, ya’ni qariyb 3,52 mln kishiga yoki 19,8 foizga oshgan (1-jadval) [9].

1-jadval. O‘zbekistonda mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Yil	Mehnat resurslari, mln	Iqtisodiy faol aholi, mln	Band aholi, mln	Ishsizlar, mln	Bandlik, %
2010	16,726	12,287	11,628	0,658	66,9
2015	18,276	13,768	13,058	0,709	68,2
2020	19,158	14,797	13,236	1,561	66,0
2023	19,740	15,038	14,014	1,024	67,9
2024	20,085	15,098	14,262	0,836	68,3
2025	20,603	15,679	14,934	0,745	70,5

1-jadvaldan ko‘rinishicha, 2010–2025-yillarda mehnat resurslari 16,73 mln kishidan 20,60 mln kishiga oshgan. Iqtisodiy faol aholi 12,29 mln kishidan 15,68 mln kishiga, band aholi esa 11,63 mln kishidan 14,93 mln kishiga ko‘paygan [3–5]. Pandemiya ta’siri kuchli bo‘lgan 2020-yilda ishsizlar soni 1,56 mln kishiga yetib, bandlik darajasi 66,0 foizgacha pasaygan. 2025-yilning dastlabki ma’lumotlarida ishsizlar soni 744,9 ming kishigacha kamaygan, bandlik darajasi esa 70,5 foizga ko‘tarilgan [6, 7]. Bu mehnat resurslari o‘sishi bandlikning o‘sishi bilan birga kechayotganini ko‘rsatsa-da, mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yangi ishchi kuchi sababli ish o‘rinlarini yaratish zarurati saqlanib qoladi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda band aholi sonining dinamikasi, 2010–2025-yillar

Band aholi soni 2010-yildagi 11,63 mln kishidan 2025-yilda 14,93 mln kishiga ko‘tarilgan. 2020-yildagi o‘sishning sekinlashuvi va undan keyingi tiklanish mehnat bozoriga tashqi iqtisodiy zarbalar ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi (2-jadval).[1]

2-jadval. O‘zbekiston aholisining yosh tarkibi va uzoq muddatli demografik o‘zgarishlar

Ko‘rsatkich	Davr	Qiymat	Mazmuni
Doimiy aholi	2026-yil 1-yanvar	38,2 mln	Umumiy aholi soni
Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar	2026-yil 1-yanvar	12,3 mln (32,1%)	Kelajakdagi ishchi kuchi zaxirasi
Mehnatga layoqatli yoshdagilar	2026-yil 1-yanvar	21,3 mln (55,8%)	Hozirgi asosiy mehnat resurslari
Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar	2026-yil 1-yanvar	4,6 mln (12,1%)	Qarish jarayonining hozirgi ko‘lami

1 Manba: 1-jadvaldagi SIAT ko‘rsatkichlari [5].

15–64 yoshdagi aholi	2024-yil	23,9 mln	UNFPA ma’lumotlari
15–64 yoshdagi aholi	2050-yil prognozi	33 mln.dan ortiq	Mehnat yoshidagi aholi o‘sishi davom etishi kutiladi
65 yosh va undan katta aholi	2024-yil	2,2 mln	Katta yoshdagi aholi soni
65 yosh va undan katta aholi	2050-yil prognozi	6,1 mln	Pensiya, sog‘liqni saqlash va parvarish xizmatlariga talab ortishi mumkin

UNFPA prognoziga ko‘ra, 15–64 yoshdagi aholi soni 2050-yilgacha 33 mln kishidan oshishi mumkin. Shu bilan birga, 65 yosh va undan katta aholi soni 2024-yildagi 2,2 mln kishidan 2050-yilda 6,1 mln kishiga yetishi kutilmoqda [2]. Demak, O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida ikki vazifani hal qilishi kerak: ko‘p sonli yoshlarni mehnat bozoriga samarali jalb etish va kelajakdagi qarish sharoitiga pensiya, sog‘liqni saqlash hamda katta yoshdagilar bandligi tizimlarini oldindan moslashtirish.

2025-yilda iqtisodiy faollik darajasi 74,0 foizni tashkil etib, 2024-yildagi 72,3 foizdan yuqori bo‘lgan [14]. Milliy statistikaga ko‘ra, 2025-yilda erkaklarning iqtisodiy faollik darajasi 79,3 foizni tashkil qilgan [15]. Jahon bankining ILO model baholariga asoslangan Gender Data Portalida esa 2025-yilda 15 yoshdan katta ayollarning ishchi kuchida ishtiroki 48,9 foiz, erkaklarniki 73,1 foiz deb ko‘rsatiladi [12]. Metodologiyalar turlicha bo‘lgani sababli bu ko‘rsatkichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyoslash mumkin emas, biroq ular xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish salmoqli imkoniyat ekanini ko‘rsatadi. Jahon banki 2021-yilda ayollar va erkaklar ishchi kuchida ishtiroki o‘rtasidagi tafovut 28 foiz punktini tashkil etganini qayd etgan [11].

Yoshlar segmenti mehnat bozorining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. SIAT ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda 20–24 yoshdagi bandlar soni 1,58 mln, 25–29 yoshdagilar soni esa 2,36 mln kishini tashkil etgan [16, 17]. Jahon bankining ILO model bahosiga ko‘ra, 2025-yilda 15–24 yoshdagi yoshlarning mehnat bozoridagi ishsizlik darajasi taxminan 11,4 foizni tashkil qilgan [18]. Ushbu ko‘rsatkichlar yoshlarning iqtisodiy faolligini yanada oshirish, ta’lim jarayonini mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirish, amaliy tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirish va hududlarda bandlik imkoniyatlarini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar demografik o‘zgarishlarning mehnat bozoriga ta’siri bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan xulosalarning O‘zbekiston sharoitida ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatning demografik rivojlanish bosqichi rivojlangan mamlakatlardan farq qiladi. Lisenkova va hammualliflar rivojlangan mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholi sonining o‘zgarishi va aholining qarishi ishchi kuchi tarkibi hamda iqtisodiy qaramlik ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [1]. O‘zbekistonda esa 15–64 yoshdagi aholi sonining o‘sishi davom etmoqda. Bu holat mamlakat uchun mehnat resurslaridan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va sifatli bandlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Demografik dividend nuqtayi nazaridan, mehnat yoshidagi aholi ulushining yuqoriligi va uning mutlaq soni ortib borishi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim salohiyat hisoblanadi. Ushbu salohiyatdan samarali foydalanish ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, bandlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralariga bog‘liq. 2025-yilda iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi soni 4,92 mln kishini tashkil etgan [19]. Mazkur guruh talabalar, uy xo‘jaligida band shaxslar va mehnat bozorida faol ishtirok etmayotgan boshqa aholi qatlamlarini qamrab olishi mumkin. Ushbu guruhlar uchun ta’lim olish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va mehnat bozoriga o‘z imkoniyatlari hamda ehtiyojlariga mos ravishda kirib kelish sharoitlarini kengaytirish iqtisodiy faollikni oshirish va mavjud mehnat salohiyatidan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Xotin-qizlar bandligi demografik dividendning muhim zaxirasidir. Bolalarni parvarishlash xizmatlarini kengaytirish, moslashuvchan va masofaviy ish shakllari, kasbiy qayta tayyorlash hamda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash ularning iqtisodiy faolligini oshirishi mumkin [1, 11, 12]. Bunday choralar mehnat taklifini ko‘paytirish bilan birga, uy xo‘jaliklari daromadlari va inson kapitalidan foydalanish samaradorligini ham oshiradi.

Mehnat unumdorligi demografik o‘sish salohiyatini iqtisodiy natijalarga aylantirishda muhim omil hisoblanadi. Yosh ishchi kuchi soni ortib borayotgan sharoitda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, rasmiy va xodimlarning malakasiga mos ish o‘rinlarini kengaytirish iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi. Buning uchun kasbiy ta’limni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yoshlarning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Migratsiya ichki mehnat bozoridagi ishchi kuchi taklifini muvozanatlashtirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmlardan biridir. Jahon bankining ochiq ma’lumotlarida 2023-yilda xorijda ro‘yxatdan o‘tgan o‘zbekistonlik mehnat migrantlari soni qariyb 2 mln kishini tashkil etgani qayd etiladi [13]. Mehnat migratsiyasi fuqarolarning bandlik imkoniyatlarini kengaytirish va pul o‘tkazmalari orqali uy xo‘jaliklari daromadlarini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Shu bilan birga, migrantlarning kasbiy tajribasi va bilimlaridan samarali foydalanish, ularning mamlakatga qaytgandan keyin mehnat bozoriga moslashishi uchun qulay sharoitlar yaratish muhimdir. Shu

maqsadda xavfsiz migratsiya tizimini rivojlantirish, kasbiy sertifikatlash imkoniyatlarini kengaytirish va qaytgan migrantlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Hududiy iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlari ish bilan ta’minlash va mehnat resurslaridan foydalanish bo‘yicha hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi. 2025-yilda iqtisodiy faollik darajasi respublika bo‘yicha 74,0 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 70,8 foiz, Toshkent shahrida esa 90,5 foizni tashkil etgan [14]. UNFPA prognoziga ko‘ra, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida 2050-yilgacha aholi o‘sishi nisbatan yuqori bo‘lishi kutilmoqda [2]. Ushbu tendensiyalarni hisobga olgan holda, ish o‘rinlarini yaratish, kasb-hunar tayyorlash va infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni hududiy demografik prognozlar bilan muvofiqlashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Aholining qarishi uzoq muddatli demografik rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2050-yilgacha 65 yoshdan katta aholi sonining ortishi pensiya ta’minoti, sog‘liqni saqlash va parvarish xizmatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni oshirishi kutilmoqda [2]. Shu munosabat bilan katta yoshdagi xodimlarning kasbiy ko‘nikmalarini yangilash, sog‘lom qarishni qo‘llab-quvvatlash va moslashuvchan bandlik shakllarini rivojlantirish mehnat resurslaridan uzoq muddat samarali foydalanishga yordam beradi. Pensiya tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlarni aholi salomatligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash va qayta tayyorlash imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish demografik o‘zgarishlarga moslashish hamda iqtisodiy faollikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Tadqiqotning cheklovlari shundan iboratki, tahlil umumlashtirilgan ochiq statistik ma’lumotlarga asoslangan, milliy va xalqaro manbalarda yosh chegaralari hamda metodologiyalar farq qiladi, 2025-yil SIAT ko‘rsatkichlarining ayrimlari dastlabki hisoblanadi. Sabab-oqibat munosabatlarini ajratish uchun ekonometrik model qo‘llanilmadi. Kelgusida hududlar, yosh-jins guruhlari, ta’lim darajasi va tarmoqlar bo‘yicha bandlik ma’lumotlaridan foydalangan holda demografik omillarning ish haqi, migratsiya va unumdorlikka ta’sirini ekonometrik baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda demografik o‘zgarishlarning mehnat bozoriga ta’siri ikki bosqichda namoyon bo‘ladi. Hozirgi davrda aholi soni va mehnat yoshidagi aholi guruhlari jadal o‘sib bormoqda. 2026-yil boshida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi 21,3 mln kishiga, 2025-yilda iqtisodiy faol aholi 15,68 mln kishiga va band aholi 14,93 mln kishiga yetgan. Ushbu demografik tendensiyalar mamlakat uchun demografik dividenddan samarali foydalanish va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun yoshlar uchun sifatli ish o‘rinlarini ko‘paytirish, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimini mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirish hamda hududlarda bandlik imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Uzoq muddatli istiqbolda aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar va qarish jarayoni mehnat bozorini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bugungi yosh ishchi kuchini ish bilan ta’minlash bilan bir qatorda, kelajakda mehnat unumdorligini saqlash va oshirishga xizmat qiladigan barqaror tizimni shakllantirish lozim. Asosiy takliflar: (1) mehnat bozoriga kirayotgan yoshlar uchun amaliyot dasturlari, kasbiy ta’lim va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish; (2) bolalarni parvarishlash xizmatlarini rivojlantirish va moslashuvchan bandlik shakllarini joriy etish orqali xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish; (3) yuqori unumdorlikka ega rasmiy ish o‘rinlarini yaratish va texnologik modernizatsiyani rag‘batlantirish; (4) xavfsiz mehnat migratsiyasini rivojlantirish hamda qaytgan migrantlarning kasbiy tajribasi va malakasidan samarali foydalanish; (5) hududiy rivojlanishni rejalashtirishda demografik prognozlarni hisobga olish; (6) katta yoshdagi xodimlar uchun qayta tayyorlash dasturlari va moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish. Mazkur yo‘nalishlarni izchil amalga oshirish demografik o‘sish salohiyatidan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lisenkova K., McQuaid R.W., Wright R.E. Demographic change and labour markets. Twenty-First Century Society: Journal of the Academy of Social Sciences. 2010; 5(3): 243–259. DOI: 10.1080/17450144.2010.480828.

2. UNFPA. Demographic Dividends and Sustainable Development in Central Asia: Country Snapshot – Uzbekistan. 2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Mehnat resurslari soni. Kod 2.02.01.1000. Yangilangan: 20.04.2026.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Iqtisodiy faol aholi soni. Kod 2.02.01.1300. Yangilangan: 20.04.2026.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Band aholi soni. Kod 2.02.01.1600. Yangilangan: 20.04.2026.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Ishsizlar soni. Kod 2.02.01.2000. Yangilangan: 20.04.2026.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Bandlik darajasi. Kod 2.02.01.1900. Yangilangan: 20.04.2026.

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining qariyb 56 foizi mehnatga layoqatli yoshda. 03.06.2026.

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni. Kod 2.01.02.3120. Yangilangan: 05.06.2026.

10. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. World Population Prospects 2024.

11. World Bank. Country Gender Assessment: Uzbekistan. 2024.

12. World Bank Gender Data Portal. Labor force participation rate (% of population), Uzbekistan; ILO modelled estimates. Ma’lumotlar 2025-yilgacha.

13. World Bank. Central Asia labor migration and human capital note: Uzbekistan migration evidence. 2025.

14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Aholining iqtisodiy faollik darajasi. Kod 2.02.01.1400. Yangilangan: 09.07.2026.

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Erkaklarning iqtisodiy faollik darajasi. Kod 2.02.01.1402. Yangilangan: 21.07.2026.

16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Band aholining soni (20–24 yosh). Kod 2.02.01.1604. Yangilangan: 21.07.2026.

17. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Band aholining soni (25–29 yosh). Kod 2.02.01.1605. Yangilangan: 21.07.2026.

18. World Bank, World Development Indicators. Youth unemployment, total (% of total labor force ages 15–24), Uzbekistan; ILO modelled estimate. 2025.

19. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi soni. Kod 2.02.01.2300. Yangilangan: 20.04.2026.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100